

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

“IQTISODIY NAZARIYA ASOSLARI” KAFEDRASI

“IQTISODIYOT NAZARIYASI ” fanidan

KURS ISHI

Mavzu: O‘zbekistonda milliy valyuta – so‘mni kiritilishi va uni barqarorlashtirish muommolari.

**Bajardi: SXBI fakulteti, 1/2 guruhi
talabasi Azizova D. X.**

Tekshirdi: Nigmadjanov U. X.

**Kurs ishi taqrizga
topshirilgan sana
“ ____ ” ____ 20__ y.**

**Kurs ishi taqrizdan
qaytarilgan sana
“ ____ ” ____ 20__ y.**

**Kurs ishi himoya qilingan
sana
“ ____ ” ____ 20__ y.**

(imzo)

Komissiya a‘zolari:

Baho “ ____ ” ____

(imzo)

TOSHKENT -2014

Mavzu: O‘zbekistonda milliy valyuta – so‘mni kiritilishi va uni barqarorlashtirish muommolari.

Reja:

I. Kirish	3
II. Asosiy qism:	
1) Pul va uning kelib chiqishi.....	5
2) Pulning vazifalari va mohiyati.....	9
3) O‘zbekistonda milliy valyuta so‘mning kiritilishi.....	13
4) O‘zbekistonda milliy valyutani mustahkamlash vazifalari.....	16
III. Xulosa.....	22
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	25

Kirish

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan buyon 22 yil mobaynida mamlakatimiz o'z taraqqiyotida ulkan yutuqlarga erishdi. Ro'y berayotgan o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar, erishilayotgan yutuqlar yurtimiz iqtisodiy qudratining muttasil oshayotgani, xalqimiz turmush farovonligining yanada yuksalib borayotganida ham o'z ifodasini topmoqda. Iqtisodiy islohotlarning o'zbek modeli berayotgan yuksak samaralar jahonda keng e'tirof etilmoqda.

Respublikamiz hukumati o'sha davrdayoq mamlakat iqtisodiyotini jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlashni o'z oldiga muhim vazifalardan biri sifatida qo'ydi. Bunda asosiy e'tibor murakkab iqtisodiy vaziyat yuzaga kelgan bir sharoitda aholini ijtimoiy muhofaza qilishni ko'zda tutgan holda iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratildi. Bu xarakatlar birinchi navbatda iqtisodiyotning ichki imkoniyatlari va dunyo bozori kon'yunkturasini hisobga olib, mamlakatimizning jahon mehnat taqsimotida o'ziga xos mavqeni egallashiga yo'naltirildi.

Respublikamizda islohotlarning keyingi bosqichidagi vazifalarga mos ravishda valyuta siyosati ham takomillashtirib borilmoqda.

Xozirgi bosqichda ichki valyuta bozorini yanada erkinlashtirish hamda milliy valyutamizning joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha erkin konvertatsiyasini joriy etishga tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, hozirgi kunda milliy valyuta tizimini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Chunki milliy valyutaning rivojini ta'minlash, uning barqarorligini oshirish mamlakat iqtisodiyotida, shuningdek, uning rivoji va davlatlararo o'z o'rniga ega bo'lishida juda muhim hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib yurtimizda ham milliy valyutani rivojlantirishda bir qator islohotlar amalga oshirildi. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan milliy valutani mustahkamlash maqsadida ishlab chiqilgan qator dasturlar izchil amalga oshirildi. Hususan, 1994-yilning 1-iyulida milliy valyutamiz so'mni muomilaga kiritilishi buning yaqqol dalili bo'la oladi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek, milliy valuta kuchli bo'lgan taqdirdagina iqtisodiyot izchil rivojlanadi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, oqilona pul-kredit siyosati samarasida iqtisodiyotimiz jadal rivojlanmoqda, milliy valyutamizning barqarorligi mustahkamlanmoqda. Bu esa o'zbek so'mining mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligining ishonchli kafolatiga aylanganining amaldagi yaqqol tasdig'idir.

Milliy valyuta to'g'rida so'z borar ekan avvalo pul va uning kelib chiqishi haqida qisqacha o'rganib chiqish o'rinli boladi.

Asosiy qism:

1. Pul va uning kelib chiqishi

Pul – bozor tizimining universal va eng likvidli iqtisodiy vositasi sifatida iqtisodiy o‘lchov, muomala va jamg‘arish funksiyalarini bajaradi. Pul uzoq zamonlardan beri odamlarga ma’lum. Pulning kelib chiqishi turli nazariyotchilar tomonidan Tovar ayirboshlash jarayonining rivojlanishi bilan bog‘liq holda tushuntiriladi.

Pulning vujudga kelishi va mohiyatining turli ilmiy konsepsiyalari mavjud bo‘lib, ular orasida ratsionalistik va evolutsion konsepsiyalar muhim o‘rin tutadi.

Ratsionalistik konsepsiya pulning kelib chiqishini kishilar o‘rtasidagi bitim, kelishuv natijasi sifatida izohlaydi. Bu holat ularning tovarlarni ayirboshlash chog‘ida qiymatlarning harakatlanishi uchun maxsus vositalar zarurligiga amin bo‘lishiga asoslanadi. Pulning o‘zaro kelishuv sifatida amal qilishi to‘g‘risidagi mazkur g‘oya XVIII asrning oxirigacha hukm surdi. Pulning kelib chiqishiga subyektyiv psixologik yondashuv ko‘plab hozirgi zamon xorijiy iqtisodchilarning qarashlarida ham uchrab turadi.

Masalan, P.Samuelson pulni sun‘iy ijtimoiy shartlilik sifatida belgilaydi. Amerikalik iqtisodchi J.K.Gelbreyt pulning vazifasini qimmatbaho metallar va boshqa predmetlarga biriktirib qo‘yilishi – kishilar o‘rtasidagi kelishuv mahsuli, deb hisoblaydi. Bu qoida ingliz iqtisodchisi J.Xiks tomonidan quyidagi shaklda ta’riflangan: “Pul – bu pul sifatida foydalanuvchi barcha narsalardir”¹ shunday qilib, ularning fikricha, pul – kishilar o‘rtasidagi kelishuv mahsulidir.

Pul kelib chiqishining evolutsion konsepsiyasiga ko‘ra, ular ijtimoiy mehnat taqsimoti, ayirboshlash, tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Qiymat shakllari va ayirboshlash rivojlanishining tarixiy jarayonini tadqiq qilish orqali tovarlar umumiy olami ichidan pul rolini bajaruvchi alohida tovarning ajralib chiqishini tushunish mumkin.

¹ Ekonomicheskaya teoriya. Uchebnik. – Izd., ispr. I dop. / Pod obsh. red. akad. V.I.Vidyapina, A.I.Dobrinina, G.P.Juravlevoy, L.S. Tarasevicha. M.: INFRA-M, 2005, s.156

Pul inson kashfiyoti bo'lib, u juda qadimdan ma'lum. Pulning taqdiri ayirboshlashga borib taqaladi. Insonning yana bir muhim kashfiyoti bo'lgan ayirboshlash va uning rivoji pulni yuzaga keltirgan. Pul birdaniga hozirgi shakliga aylangani yo'q. Bu uzoq davom etgan taraqqiyot natijasidir. Ayirboshlash boshida bevosita tarzda amalga oshgan, ya'ni tovar bevosita tovarga almashilgan. Bu jarayon kengayishi bilan vositachilik zaruriyati tug'iladi, uning oddiy shakllari murakkablashib, pulning va uning hozirgi holatining paydo bo'lishiga olib keladi. Pulning paydo bo'lishidagi keyingi davr metall pullar bulib, bunda kumush va oltin yetakchilik qilgan. Aytaylik, Buyuk Britaniya pul birligi funt sterlingning ma'nosi bir funt kumushni anglatadi. Rossiya pul birligi rubl kumushning bo'lagi, bo'lingan qismi ma'nosini bildiradi. Dollar va taller ham "tahler", ya'ni katta kumush tangalar degan ma'noni beradi. Pulning eng keyingi ko'rinishi **qog'oz pullar** bulib, buning ham tarixi katta. Bundan oldin monetalar yuzaga keladi. Bu metall pullar bo'lagi bo'lib, mis, bronza, kumush, oltin monetalar bosilib chiqarilgan. Moneta so'zi yunonlarning monastir nomidan kelib chiqib, bunda tangalar yasalgan. Moneta tangalar barcha mamlakatlarga tarqalib ketgan. Tanga — monetaning paydo bo'lishi savdoda mayda pul zarurligidan kelib chikadi. Moneta — ogirligi belgilangan, kadri muhrlangan metall bo'lagidir.

Har bir mamlakat o'zining puliga egadir. Chunonchi, dollar, funt sterling bir necha mamlakatlarning puli bo'lib xizmat qiladi. Lekin ularning qadri-qiymati bir xil emas. AQSh, Kanada, Avstraliya dollarining qiymat miqdori farqlanadi. Shuningdek, O'zbekiston va Qirg'iziston so'mlari ham bir xil emas. Pul birliklari paydo bo'lganda ma'lum miqdorga qadr-qiyamat asos qilib belgilangan. Milliy pullarning qadrliligi, boshqa pullarga nisbatan qiyosiy miqdori doimo o'zgarib turadi. Chunki, bu iqtisodiyotdagi ko'p tomonlar, hatto siyosiy o'zgarishlar, mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar kabi ta'sirlar natijasidir.

Milliy pul yagona to'lov vositasi hisoblanadi, uning qadri, ya'ni xarid qurbi mavjud. Pul birligining xarid qurbini kerakli tovarlarni ko'paytirish yo'li bilan ta'minlanadi. Milliy pul muayyan mamlakatga tegishli bo'lib, shu yerda muomalada bo'ladi, uni himoyalovchi belgilari bor, bir pul boshqasidan ko'rinishi

bilan farqlanadi, o'ziga xos kupura, tanga va chaqa pullardan iborat bo'ladi, pul birligining xarid qobiliyati bir xil bo'ladi. Milliy pul naqd va naqd bo'lmagan pul shakliga ega, bu faol va sust pullardan iborat, uning ma'lum massasi (miqdori) muomalada yuradi. Iqtisodiyotning pul bilan ta'minlanishini uning monetizatsiya darajasini bildiradi. Bu darajaning qandayligini pul muomalasi qonuni belgilab beradiki, unga binoan muayyan vaqtda muomalada bo'ladigan pul miqdori jami sotiladigan tovarlar narxining summasi va pul aylanmasining (harakatining) tezligiga bog'liq bo'ladi. Qancha pul zarurligi, bu pulga talab bo'lib, buni oldi-sotdi ko'lami, olibsotarlik ishlari miqyosi, har ehtimolga qarshi pulga ega bo'lish ishtiyoqi va pulning naqadar tez qo'ldan-qo'lga o'tib aylanib turishini yuzaga keltiradi. Pulga talabni hamma subyektlar bildirsa-da, biroq ularning taklifi davlat nomidan ishlovchi Markaziy bank qo'lida bo'ladi.

Pul muomalasi – bu tovarlar aylanishiga hamda notovar tusidagi to'lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan aktivlarning harakatidir. Naqd pul muomalasiga bank biletlari va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. Naqd pulsiz hisoblar cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi pul agregati, deb yuritiladi. Muomalada mavjud bo'lgan pul massasi ularni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Pul muomalasi o'ziga xos qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Uning qonunlaridan eng muhimi muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va shunga muvofiq muomalaga pul chiqarishdir.

Muomalani ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagilarga bog'liq:

1. Muayyan davrda, aytaylik, bir yil davomida sotilishi lozim bo'lgan tovarlar summasiga. Tovarlar qancha ko'p bo'lsa va narxi baland bo'lsa, ularni sotish va sotib olish uchun shuncha ko'p pul birligi talab qilinadi.
2. Pul birligining aylanish tezligiga. Pul bir xil bo'lmagan tezlik bilan aylanadi. Bu ko'p omillarga, jumladan ular xizmat qilayotgan tovarlar turiga bog'liq.

3. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori puldan to'lov vositasi sifatida foydalanishga ham bog'liq. Ko'pincha tovarlar qarzga sotiladi va ularning haqi kelishuvga muvofiq keyingi davrlarda to'lanadi. Demak, zarur pul miqdori shunga muvofiq miqdorda kamayadi. Ikkinchi tomondan, bu davrda ilgari kreditga sotilgan tovarlar haqini to'lash vaqti boshlanadi. Bu pulga ehtiyojni ko'paytiradi. Muomalada bo'lgan pul birligi miqdorining tovarlar narxi summasidan oshib ketishi va buning natijasida tovarlar bilan ta'minlanmagan pulning paydo bo'lishi pulning qadrsizlanishi, ya'ni inflatsiyani bildiradi. Milliy iqtisodiyotda davlatning, tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassasalarning majburiyatlari pul sifatida foydalanadi. Pul operatsiyalarining asosiy ko'pchilik qismi naqd pulsiz, cheklar, plastik kartochkalar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli muomalada bo'lgan pul miqdorini hisoblash uchun $M1...Mn$ pul agregatlari yoki tarkibiy qismi tushunchasidan foydalaniladi. Bizning respublikamizda umumiy pul miqdori quyidagi (tarkib)lar asosida hisoblanadi:

M_0 – naqd pullar;

$M_1 = M_0 +$ tegishli hisob varaqalaridagi pul qoldiqlari, mahalliy budjetlar mablag'lari, budjet, jamoa va boshqa tashkilot mablag'lari;

$M_2 = M_1 +$ xalq (jamg'arma) banklaridagi muddat omonatlar;

$M_3 = M_2 +$ chiqarilayotgan sertifikatlar + aniq maqsadli zayom obligatsiyalari + davlat zayom obligatsiyalari + xazina majburiyatlari.

Barcha pul agregatlari yig'indisi yalpi pul massasi yoki yalpi pul taklifini tashkil qiladi. Pulning tarkibiy qismlarida naqd pullar – metall va qog'oz pullardan iborat bo'ladi. Naqd pullar bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarda umumiy pul massasining 5–7 foizni, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan Mustaqil Hamdo'stlik Davlatlarida 30–35 foizni tashkil qiladi.

Pulga talab – bu bitimlar uchun (P_t) va aktivlar tomonidan pulga talab (P_a) ni o'z ichiga oladi.

Aholi o'zlarining hisoblariga navbatdagi pul oqimi kelib tushguncha, kundalik ehtiyojlari uchun qo'llarida yetarli pulga ega bo'lishi zarur. Korxonalarga ish haqi to'lash, material, yoqilg'i sotib olish va shu kabilar uchun pul kerak bo'ladi. Shu

barcha maqsadlar uchun zarur bo'lgan pul bitim uchun pulga talab deyiladi. Bitim uchun zarur bo'lgan pul miqdori nominal yalpi milliy mahsulot (YAMM) hajmi bilan aniqlanadi, ya'ni u nominal YAMMga mutanosib ravishda o'zgaradi. Aholi va korxonalarga ikki holda bitim uchun ko'proq pul talab qilinadi: narxlar o'sganda va ishlab chiqarish hajmi ko'payganda.

2. Pulning vazifalari va mohiyati

Kishilar o'zlarining moliyaviy aktivlarini har xil shakllarda, masalan, korporatsiya aksiyalari, xususiy yoki davlat obligatsiyalari shaklida ushlab turishi mumkin. Demak, aktivlar tomonidan pulga talab ham mavjud bo'ladi. Aktivlar tomonidan pulga talab foiz stavkasiga teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Foiz stavkasi past bo'lsa, kishilar ko'proq miqdordagi naqd pulga egalik qilishni afzal ko'radi. Aksincha, foiz yuqori bo'lganda, pulni ushlab turish foydasiz va aktivlar shaklidagi pul miqdori ko'payadi. Shunday qilib, pulga bo'lgan umumiy talab, aktivlar tomonidan pulga bo'lgan talab va bitim uchun pulga bo'lgan talabning miqdori bilan aniqlanadi.

Pul quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) *qiymat o'lchovi*. Bunda pul umumiy ekvivalent bo'lgan tovar bo'lib, o'zida mehnatni mujassamlashtiradi va shu sabab tovar qiymatini o'lchay oladi;
- 2) *muomala vositasi*. Bunda pul oldi-sotdida ishlatiladi. Pul yordamida tovarni xarid etish, pulga tovar ayirboshlash yuz beradi;
- 3) *jamg'arma vositasi* – bu pulning jamlangan boylik shakliga kirib, o'z egasi uchun kerak bo'lganda xarid etish vositasi bo'lib xizmat qila olishidir.

Hozirgi kunda elektron pullar o'tkazmalari keng rivojlanmoqda. Sanoqli soniyalarda jo'natmalar dunyoning ko'rsatilgan manzillariga yetkazilmoqda. Bu aholi uchun qulayliklar tug'diradi.

Pul islohoti o'tkazish yo'llari:

deflyatsiya – muomaladagi pul miqdorini ortiqcha pul belgilarini iste'moldan chiqarish yo'li orqali kamaytirish;

denominatsiya – pul belgilari qiymatining o‘zgarishi va ma’lum nisbatda yangi yirik pul birligiga almashtirilishi;

nullifikatsiya – eski pul belgilarini muomaladan olish va ozroq miqdorda yangilarini chiqarish;

revalvatsiya – milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda chet el valutasini yoki qimmatbaho metallga nisbatan ko‘tarilishi;

devalvatsiya – mamlakat savdo va to‘lov balansining keskin yomonlashuvi, valuta rezervining holdan toyishi, xalqaro valuta bozorlarida milliy valuta kursining pasayishi bilan bog‘liq holda pul birligi qiymatining rasmiy tartibda chet el valutasini yoki qimmatbaho metallga nisbatan pasaytirilishi. Pul bozorida makroiqtisodiy muvozanatni saqlashda Markaziy bank muhim o‘rin tutadi. Shu bois o‘quvchilarga bu borada to‘laqonli axborotga ega bo‘lishlari uchun 1995-yil 21-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunidan misollar keltirishni lozim topdik.

33-modda. Markaziy bankning pul belgilarini chiqarishdagi vakolatlari.

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to‘lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko‘rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutlaq huquqqa ega. Ularni qalbakilashtirish va noqonuniy tarzda tayyorlash qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Muomalada bo‘lgan banknotlar va tangalar Markaziy bankning qat’iy majburiyatlari hisoblanadi va uning jamiki aktivlari bilan ta’minlanadi.

Markaziy bank yo‘q qilib yuborilgan, yo‘qotilgan, qalbaki, yasama va qonuniy kuchini yo‘qotgan banknotlar va tangalarning o‘rnini qoplamaydi. Markaziy bank banknotlar va tangalarning namunalarini, shuningdek ularning dizaynini Oliy Majlis Senatining Kengashi bilan kelishgan holda tasdiqlaydi. Banknot va tangalarning dizayni Markaziy bankning mulki hisoblanadi. Markaziy bank yangi namunalaridagi banknot va tangalar muomalaga chiqarilishi to‘g‘risidagi axborotni, shuningdek ularning tavsifini ommaviy axborot vositalarida e’lon qiladi. Markaziy bank va u vakolat bergan banklar talabga ko‘ra bir nominal qiymatdagi banknot va

tangalarni boshqasiga hech qanday to'lovsiz yoki vositachilik haqisiz ayirboshlab beradi.

34-modda. Pul belgilarini tayyorlash va saqlash.

Markaziy bank banknotlar bosilishi va tangalar zarb qilinishi, muomalaga chiqarilmagan pul belgilari saqlanishini, shuningdek bosma qoliplar va bo'yoqlar saqlanishi hamda yo'q qilinishini ta'minlaydi, naqd pullarni saqlash, tashish va inkasso qilish, shuningdek ularni yo'q qilib yuborish qoidalarini belgilaydi.

35-modda. Muomaladagi pul belgilaridan foydalanishga qo'yiladigan talablar.

Markaziy bank muomalaga chiqargan banknot va tangalar O'zbekiston Respublikasining butun hududida to'lovlarning barcha turlarida yozilgan qiymati bo'yicha qabul qilinishi, shuningdek hisobvaraqa, omonatga o'tkazish va jo'natma sifatida o'tkazish uchun qabul qilinishi majburiydir.

36-modda. To'lovlarni amalga oshirish.

To'lovlar O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pul bilan yoki naqd pulsiz hisob-kitoblar ko'rinishida amalga oshiriladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi hududida banklar orqali amalga oshiriladi. Markaziy bank naqd pulsiz hisob-kitoblar shakllari va qoidalarini belgilaydi. Markaziy bank yuridik shaxslarning kassa operatsiyalarini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

38-modda. Naqd pul mablag'larini muomalaga chiqarish.

Naqd pul mablag'larini muomalaga chiqarish va qaytarib olishni faqat Markaziy bank amalga oshiradi.

39-modda. Pul belgilarini muomaladan qaytarib olish.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida har qanday banknot va tangalarni muomaladan qaytarib olishga haqli. Bunga Markaziy bankning ayirboshlash tartibi va muddati ko'rsatilgan normativ hujjat asos bo'lib xizmat qilishi kerak, ayirboshlash muddati bir yildan kam bo'lishi mumkin emas. Markaziy bank ayirboshlash uchun belgilagan muddat tugaganida ayirboshlanishi kerak bo'lgan banknot va tangalar qonuniy to'lov vositasi sifatidagi o'z kuchini yo'qotadi.

O'zbekiston Respublikasida 1994-yilning 1-iyunidan boshlab respublika milliy valutasini «so'm» muomalaga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki muomalaga 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so'mga 200, 500 va 1000 so'mlik kupuralar hamda 1, 3, 5, 10, 20 va 50 «tiyin»lar va 5, 10, 25, 50, 100 so'mlik tangalar chiqardi. O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida hisob-kitoblar, to'lovlar, respublika rezidentlari va norezidentlari, yuridik va xususiy shaxslar o'rtasidagi muomalalar, albatta, milliy valuta – «so'm»da amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Iqtisodiyotda pulning likvidligi muhim o'rin tutadi. Pulning likvidligi uning muomala sifatida hamma narsaga tez va hech bir to'siqsiz ayirboshlanishidir. Puldan boshqa likvidli aktivlar ham bor, lekin ular likvidlik jihatdan pulga tenglasha olmaydi. Sababi pul hech bir xarajatsiz xohlagan paytda xohlagan narsaga ayirboshlanishi mumkin. Bino, javohir yoki transport vositasi boshqa narsaga ayirboshlanishi uchun u sotilishi kerak, bu ko'p vaqt va xarajatni talab qiladi.

Milliy pul – bu muayyan mamlakatda muomalada yuruvchi va tanho to'lov vositasi deb qabul qilingan puldir.

Hozirgi iqtisodiyotda tovar shaklidagi pul qo'llanilmaydi deyish mumkin. Ularning o'rniga qog'oz va elektron pullar qo'llaniladi. Qog'oz pullar dekretlangan. Yuqoridagi 39-moddaga muvofiq, davlat tomonidan pul deb e'lon qilingan maxsus belgilari bor qog'ozlardir. Qog'oz pullar kupura shaklida hamda tangalar sifatida chiqarilishini yuqoridagi ma'lumotlardan bilib oldik. Milliy pul yagona to'lov vositasi hisoblanadi. U 12 ta himoya belgilariga ega. Himoya belgilari uni qalbakilashtirishning oldini oladi. Pullar muomala qilish jihatidan naqd va naqd bo'lmagan pullarga ajraladi.

Naqd pullar – bu aholi qo'lida aniq moddiy shakldagi qog'oz va tanga pullar bo'lib, ular qo'ldan qo'lga o'tib yuradi. Bu eng ko'p tarqalgan to'lov vositasidir.

Naqd bo'lmagan pullar bu bankdagi ayrim fuqarolar (jismoniy shaxslar), firmalar yoki davlat tashkilotlari (yuridik shaxslar) nomiga yozilgan puldir. Naqd bo'lmagan pul bankda turgani uchun u egasiga foiz keltirgan holda o'sib boradi.

Naqd bo'lmagan pullar bankning joriy va muhlatli depozitlarida turadi, u ham to'lovlarda qo'llaniladi. Pullar bankda saqlanganda xavfsiz bo'ladi. Bugun dunyo mamlakatlarida plastik kartochoqlardan ham keng foydalanilmoqda. Biroq ularning o'zini pul deb bo'lmaydi. Ular pul borligini tasdiqlovchi vositadir. Pul aktiv va passiv pulga bo'linadi. Aktiv pul amalda harakatda bo'ladi, ya'ni iqtisodiyotdagi oldi-berdi munosabatlarida to'lov vositasi sifatida harakat qiladi. Passiv pul bu iqtisodiy aylanmada ishtirok etmay turgan puldir. U jamg'arma, pul rezervlari va kassa qoldiqlaridan iborat bo'ladi. Milliy pullardan tashqari jahon pullari ham bo'ladi. Bu xalqaro miqyosda, ya'ni mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarga xizmat qiluvchi puldir. Ilgarilari jahon puli vazifasini oltin quyilmalari, ya'ni yombilari tashkil etgan. Hozir maxsus chiqarilgan jahon puli yo'q. Bu pul vazifasini qadri barqaror, ya'ni qattiq valutarlar tashkil etadi (AQSh dollari, Angliya funt sterlingi, Yaponiya iyenasi, Yevropa Ittifoqining yevrosi, qisman Xitoy yuani). Pul muomalasi deganda, bu pulning qo'ldan qo'lga o'tib, doimo harakatda bo'lishidir. Pul banklardan chiqib firmalar, davlat idoralari va nodavlat tashkilotlari kassasiga kelib tushadi. Iqtisodiyotda pul yetarli bo'lib, uning yetishmay qolishi yoki ortiqcha bo'lib ketishi kabi hollar yuz bermasligi kerak. Iqtisodiyotning pul bilan naqadar ta'minlanishi uning monetizatsiyalanish darajasi deb yuritiladi. Pul muomalasini boshqarib turuvchi iqtisodiy qonun borki, bu bozor iqtisodiyotining muhim qonunlaridan biridir. Bu qonun muomalada qancha pul zarur bo'lishini belgilab beradi.

3. O'zbekistonda milliy valyuta so'mning kiritilishi

Faxr-iftixorimiz, ozod yurtimizning ramzlaridan biri bo'lgan milliy valutamiz – so'mning muomalaga kiritilgani mustaqilligimizni mustahkamlash yo'lidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi. So'm hayotimizdan o'rin egallagan kundan boshlab o'tgan 14 yillik muddat mustaqil pul tizimini yaratish haqidagi qaror strategik jihatdan to'g'ri tanlanganligini va mustaqilligimizning iqtisodiy poydevorini mustahkamlashga yo'naltirilganligini hayotning o'zi isbotladi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimovning 1994 yil 16 iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining milliy valutasini muomalaga kiritish to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, 1994 yil 1 iyuldan so‘m muomalaga kiritildi – mamlakatimiz mustaqil valuta siyosatini yuritish imkoniga ega bo‘ldi. Bu mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan davlatimizning oyoqqa turib olishida, siyosati iqtisodda erkinligini ta‘minlashda muhim omil bo‘ldi.

O‘zbekistonning bank sektori rubl hududining tarkibiy qismiga kirgan, uning iqtisodiyoti esa markazlashtirilgan rejalashtirish tartibiga tobe bo‘lgan vaqtlarda biz bugungidek tub o‘zgarishlarni, iqtisodiy yuksalishlarni xayolimizga ham keltira olmas edik. Sobiq markazning respublikalar bilan kelishmay pulni emissiya qilishi natijasida pul muomalasi izdan chiqqan o‘sha paytda mamlakatimizda narx-navo keskin oshib ketgani, iste‘mol mollarining surunkali taqchilligi avj olganini eslasak, milliy valutamizning joriy etilgani hayotimizda qanchalik muhim ahamiyat kasb etganini yanada chuqurroq anglaymiz.

So‘mning muomalaga kiritilishi iqtisodiy mustaqillik yo‘lidagi dadil qadamlardan biri bo‘ldi. Mamlakatimiz o‘z milliy valutasining barqarorligi va mustahkamligiga kimlardandir qarz olish evaziga emas, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, mavjud zahiralardan oqilona foydalanish bilan erishdi.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan milliy valutani mustahkamlash maqsadida ishlab chiqilgan qator dasturlar izchil amalga oshirildi. Bu dasturlar so‘mning xarid narxini oshirish uchun bozorlarimizni o‘zimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to‘ldirish, mamlakatimizning eksport salohiyatini yuksaltirish, pul-kredit siyosatining izchilligini, ichki bozordagi iste‘mol mollari bilan naqd pul mutanosibligini ta‘minlashga qaratildi.

Faol investitsiya siyosatini yuritish, tarkibiy islohotlarni amalga oshirish va valuta resurslaridan butun iqtisodiyot taraqqiyoti uchun poydevor bo‘lib xizmat

qiluvchi hamda import o'rnini bosadigan mahsulotlar hajmini oshiruvchi yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish salohiyatini shakllantirish yo'lida foydalanilishi qisqa muddatlarda mashinasozlik, gaz va neftni qayta ishlash sohalarida, kimyo sanoatida yangi, yirik ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish imkonini berdi. Transport infratuzilmasini rivojlantirish borasida qator yirik loyihalar amalga oshirildi.

Ko'rilgan bunday chora-tadbirlar natijasida yurtimiz g'alla va neft mustaqilligiga erishdi. Ilgarilari mamlakatimizda yetishtirilgan paxta hosilini sotishdan tushgan mablag'ning yarmidan ko'piga don va neft mahsulotlari sotib olingan bo'lsa (so'm muomalaga kiritilishidan oldin O'zbekiston chetdan yiliga 680 million AQSH dollarigacha neft mahsulotlari, 430 million dollargacha g'alla sotib olar edi), hozir bunday mahsulotlarni eksport qilmoqda. Natijada har yili bir necha milliardlab valuta resurslari tejalmoqda. Mamlakatning eksport salohiyati oshgani sayin so'mning qadri ham mustahkamlanmoqda.

2003 yilning 15 oktabridan O'zbekistonda Xalqaro valuta jamg'armasi Nizomining VIII moddasi talablari kuchga kirdi. Mana, qariyb besh yildirki, so'mning joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha erkin almashinuvi amalda. Milliy valutamizning joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha almashtirilishi mamlakatimizda erishilgan makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, xorijiy investorlarni jalb qilish borasida yangi imkoniyatlarni yaratdi. O'tgan vaqt so'mimizning barqaror valutalardan biriga aylanib borayotganini tasdiqladi. Xususan, inflatsiyani jilovlashga muvaffaq bo'lingani tufayli 2001 yilda uning yillik darajasi 26,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2007 yilda 6,8 foizdan oshmadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz oltin-valuta zahirasi sezilarli darajada oshdi. Jumladan, 2007 yilda eksport hajmi 40,7 foizga ortib, importga nisbatan ancha yuqori bo'lgani sababli oltin-valuta zahiramiz 1,5 barobar ko'paydi. Ayni chog'da tijorat banklariga qo'yilgan depozitlar miqdori kundan-kunga ortmoqda. Joriy yil

boshidagi ma'lumotlarga qaraganda, 2000 yildan beri aholining tijorat banklaridagi mablag'lari 55 baravar o'sgan. Prezidentimiz Islom Karimovning 2008 yil 20 fevralda qabul qilingan "Tijorat banklarida aholi omonatlari shartlarini liberallashtirish hamda kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bu borada yangi imkoniyat va qulayliklar yaratdi. E'tiborga molik yana bir jihati shundaki, hozir qattiq valuta hisob raqamlardagi mablag'larning so'mdagi hisob-raqamlarga faol o'tishi kuzatilmoqda. Bu qadamlar yurtdoshlarimizning milliy valutaga bo'lgan ishonchi tobora ortib borayotganidan dalolatdir.

So'm davlatimizning Bayroq, Gerb, Madhiya kabi ramzlari qatori milliy iftixorimiz timsollaridandir. So'm biz uchun nafaqat to'lov vositasi, balki xalqimizning boy tarixi, qadriyatlari, buyuk bunyodkorlik salohiyatini o'zida aks ettirgan ma'naviy vosita sifatida ham qadrlidir. Samarqanddagi Registon maydoni, Tillakori, Sherdor madrasalari, Go'ri Amir maqbarasi, Buxorodagi Chashmai Ayyub ansambli kabi tarixiy obidalar, poytaxtimizdagi Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat akademik katta teatri, "Istiqlol" san'at saroyi, shuningdek, shavkatli sohibqiron bobomiz Amir Temurga o'rnatilgan muazzam haykal tasviri tushirilgan kupuralar nafaqat mamlakatimizning iqtisodiy qudrati, balki xalqimiz ma'naviy salohiyatining yanada yuksalishiga ham xizmat qilmoqda. Qo'liga o'zbek so'mini olgan har bir yurtdoshimizning qalbida unda aks etgan tasvirlar ta'sirida Vatani, bunyodkor xalqi, ajdodlar merosi bilan faxr-iftixor tuyg'ulari jo'sh urishi shubhasiz.

4. O'zbekistonda milliy valyutani mustahkamlash vazifalari

Respublikada milliy valyutani mustahkamlash ishida so'mning harid quvvatini oshirib borish va uning barqarorligini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Bunga bozorni raqobatdosh mahsulotlar bilan to'ldirish va zarur ehtiyojlar hosil qilish orqali erishiladi. Bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirishda

milliy ishlab chiqarishni imkoni boricha kengaytirib boorish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki shu orqali iste'mol mollari sotishning umumiy hajmida milliy mahsulotlar hisssasi oshib boradi. Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish zarurki, milliy ishlab chiqarishni kengaytirish orqali so'mning barqarorligini ta'minlash chetdan mahsulot keltirishni inkor qilmaydi. Aholini sifatli chet el mollari bilan ta'minlash maqsadida import ham rag'batlantirib boriladi.

So'mning barqaror amal qilishi, uning har qanday valyutaga erkin almashilishi yetarli valyuta zaxirasi bo'lishiga bog'liq. Unga erishishda korxonalar va barcha sub'yektlarning, jahon bozoriga raqobatga bardosh beradigan mahsulot ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan rag'batlantiruvchi omillarni vujudga keltirish alohida ahamiyatga ega.

So'mning barqarorligini ta'minlashda undan oqilona va tejab tergap foydalanish, ishlab chiqarishga sarflangan mablag'larning eng ko'p samara berishiga, olingan kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishiga erishish muhim o'rin tutadi.

Inflyatsiyaga qarshi aniq o'ylangan siyosat o'tkazish milliy valyutani mustahkamlashning muhim shartlaridan biridir. Bu siyosat eng avvalo inflyatsiya darajasini keskin kamaytirishga qaratilishi lozim. Bunda pulning qadrsizlanish darajasi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish hamda unga qarshi samarali tadbirlar qo'llash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu orqali pulning qadrsizlanishida maqbul sur'atni tanlashga erishiladi.


Respublikamizda milliy valyutani rivojlantirish va barqarorlashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni quyidagi jadval orqali ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida so'mni erkin ayirboshlanadigan valyutaga nisbatan ayirboshlash hajmi (mlrd. AQSH dollarida):

Yillar	1995 (1)	1996 (2)	1997 (3)	1998 (4)	1999 (5)	2000 (6)
Valyuta birjasi	1.3	3.3	3	1.9	1.8	1.7
Birjadan tashkari valyuta bozori	0	0	0.6	0.3	0.3	0.3
Jami	1.3	3.3	3.6	2.2	2.1	2.0

Shuningdek bu ko'rsatkichlarni quyidagi jadval orqali ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi valyuta bozorida so'mni erkin ayirboshlanadigan valyutaga nisbatan ayirboshlash hajmi (mlrd. AQSH dollarida):



O'zbekistonda so'm mablaq'larini erkin muomaladagi valyutaga

konvertatsiya qilish tizimi birinchi navbatda xalq isteʼmoli mahsulotlari va eksportbop tovarlarni ishlab chiqarish bilan shuqʻullanuvchi, iqtisodiqtning asosiy va etakchi obʼyektlarin realizatsiya qilish bilan boqʻliq, xorijiy investorlarning foydasining bir qismi va dividendlarini repatriatsiyasi bilan shuqʻullanuvchi korxonalarning (xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ham shular jumlasidan) ehtiqqini qondirishga yoʻnaltirilgan.

Inflaytsiyaga qarshi siyosat negizini pul miqdorining oʻsishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada oʻsishi bilan bogʻlab olib borishga qaratilgan tadbirlar tashkil qilish zarur. Chunki xarid qilish uchun molar yetarli boʻlmagan holda aholi qoʻlida pulning ortiqcha koʻpayib ketishi inflyatsiyaning yanada avj olib ketishiga sabab boʻladi. Shu orqali pulning qadrsizlanishida maqbul surʼatni tanlashga erishiladi.

Inflatsiyaga qarshi siyosat negizini pul miqdorining oʻsishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada oʻsishi bilan bogʻlab olib borishga qaratilgan tadbirlar tashkil qilish zarur. Chunki xarid qilish uchun molar yetarli boʻlmagan holda aholi qoʻlida pulning ortiqcha koʻpayib ketishi inflatsiyaning yanada avj olib ketishiga sabab boʻladi. Pul miqdori bilan birga narxlarning ham tobora oʻsib borishi muqarrar ravishda, uzoq davom etadigan giperinflatsiyani keltirib chiqaradi. Bu, oʻz navbatida, milliy ishlab chiqarishning izdan chiqishi, aholi keng tabaqalarining qashshoqlashishi va butun ijtimoiy tizimning barbod boʻlishi xavfini tugʻdiradi. Tovarlar taqchilligi mavjud boʻlib turgan hozirgi bosqichda giperinflatsiyaning oldini olish uchun aholi isteʼmol fondining oʻsishini ishlab chiqariladigan mahsulot, koʻrsatiladigan xizmatning moddiy hajmi koʻpayishiga bevosita bogʻliq qilib qoʻyish zarur boʻladi. Ichki bozorni mollar va xizmatlar bilan toʻldirish, muomalaga oʻrinsiz ortiqcha pul chiqarilishiga yoʻl qoʻymaslik, milliy valuta barqarorligini taʼminlash va xalq turmush darajasini oʻstirishning muhim shartidir. Soʻmning barqarorligini taʼminlashda naqd pul emissiyasining oʻsishiga, aholi qoʻlida pulning harakatsiz turib qolishiga yoʻl qoʻymaslik birinchi darajali

ahamiyatga ega. Bunda muomalaga chiqarilgan pul miqdorining o'z vaqtida qaytarilishiga erishish, mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi ta'minlamagan korxonalarga kreditlar berilishiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rilishi kerak. Inflatsiyani pasaytiruvchi qudratli omil milliy valuta almashuv kursining barqarorlashuviga erishishdir. Bu, o'z navbatida, import narxlarning barqarorlashuviga olib keladiki, natijada ichki bozordagi narxlar o'zgaradi. Valuta birjalarida valuta operatsiyalarining barcha turlari uchun talab va taklif natijasida shakllanadigan yagona almashuv kursini belgilash, valuta kursi barqarorligiga erishishning dastlabki shartidir. Milliy valuta kursi barqarorligini ta'minlashning navbatdagi sharti dastlabki bosqichda valutani naqd pulsiz almashtirish hajmini ko'paytirishga ustunlik berishdir. Istiqbolda esa bu sohadagi siyosat banklararo valuta birjasidagi oborot miqdorini korxona va fuqarolar o'z pulini xohlagan miqdorda xohlagan valutaga erkin almashtirish imkoniyatini beradigan darajaga yetkazishga qaratiladi. Bunga erishishda milliy ishlab chiqarishda eksport ulushini kengaytirish bilan birga, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «milliy valutamizning joriy operatsiyalar bo'yicha erkin almashuvini, ya'ni konvertatsiyasini ta'minlash uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish»1 alohida ahamiyatga ega. Bu sharoit yaratilishi natijasida erkin almashuv amalga oshmoqda. Shunday qilib, yuqorida qarab chiqilgan chora va tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi milliy valutamiz almashuv kursining barqarorlashuviga, uning xarid qilish quvvatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatimizda o'tkazilayotgan nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sohalardagi islohotlardan ham asosiy ko'zlangan maqsad barcha o'zgarishlarning natijasi va belgisi milliy valutamiz – so'mimizni mustahkamlash, uni bosqichma-bosqich jahonning kuchli valutalari bilan konvertatsiyalashga, ya'ni erkin almashuviga erishishdir. *Pulning baquvvatligiga erishishga qaratilgan davlat dasturlari:*

- ichki bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirish;
- davlat xarajatlarini keskin qisqartirish, qat'iy moliya, bank-kredit siyosatini o'tkazish;
- eksport imkoniyatlarini keskin kuchaytirish;

- ortiqcha pul emissiyasiga, ya'ni pul bilan ta'minlanmagan ortiqcha pul muomalada bo'lishiga yo'l qo'ymaslik.

Pulning qadrini mustahkamlashni ta'minlashning vositalari:

- mamlakatning oltin zaxirasi bilan;
- mamlakatning butun boyligi bilan;
- tovar massasining hajmi va tarkibi orqali;
- talab va taklif o'rtasidagi nisbatni tartibga solish orqali;
- narx-navoni tartiblash orqali;
- pul muomalasi qonunidan foydalanish orqali.

So'mning barqarorligini ta'minlashda naqd pul emissiyasining o'sishiga, aholi qo'lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo'l qo'ymaslik birinchi darajali ahamiyatga ega. Bunda muomilaga chiqarilgan pul miqdorining o'zvaqtida qaytarilishiga erishishi, mahsulot ishlab chiqarishning o'sishini ta'minlamagan korxonalarga kreditlar berilishig yo'l qo'ymaslik choralari ko'rilishi kerak.

Milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlashning navbatdagi sharti dastlabki bosqichda valyutani naqd pulsiz almashtirish hajmini ko'paytirishga ustunlik berishdir. Bunga erishishda milliy ishlab chiqarishda eksport ulushini kengaytirish bilan birga Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek "...milliy valyutamizning joriy operatsiyalar bo'yicha erkin almashinuvini, ya'ni konvertatsiyalarni ta'minlash uchun barcha zaruriy shart sharoitlarni yaratish"² alohida ahamiyatga ega. Bu sharoit yaratilishi natijasida erkin almashuv amalga oshmoqda.

Shunday qilib, yuqorida qarab chiqilgan chora va tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi milliy valyutamiz almashuv kursining barqarorlashuviga, uning xarid qilish quvvatinig oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

² Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: "O'zbekiston", 2000, 18-bet

Xulosa

Davlatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida milliy valyutamizning joriy operatsiyalar bo'yicha ayirboshlanishini amalga oshirish uchun respublikamizda zarur shart-sharoit mavjud emas edi. O'tgan yigirma ikki yil davomida esa aynan shu shart-sharoitni yaratishga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida* ham bunga to'xtalib o'tilgan: "Biz oddiy bir haqiqatni doimo esda tutishimiz darkor. Ya'ni, sarmoyasiz taraqqiyot yo'q, ishlab chiqarishni va umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

2013-yilda moliya sohasini rivojlantirish va investitsiya dasturini amalga oshirish doirasida mamlakatimizda 13 milliard dollar qiymatidagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2012-yilga nisbatan 11,3 foizga ko'pdir. O'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar umumiy hajmining deyarli yarmini, ya'ni 47 foizini xususiy investitsiyalar – korxonalar va aholining shaxsiy mablag'lari tashkil etgani alohida e'tiborga loyiqdir.

Jalb etilayotgan investitsiyalarning asosiy qismi – 70 foizdan ortig'i, birinchi navbatda, ishlab chiqarish ob'ektlarini qurishga yo'naltirildi, eng yangi zamonaviy uskunalar xarid qilishga sarflangan investitsiyalar ulushi esa qariyb 40 foizni tashkil etdi.

Umuman olganda, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiya kiritish va moliyalashtirish hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23 foizdan iborat bo'ldi"³

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan

Jahon tajribasidan malumki, ko'pgina mamlakatlar bozor munosabatlari ma'lum darajada shakllanib, iqtisodiyotning rivojlanishi muayyan bosqichga etganidagini milliy valyuta konvertatsiyasiga erishishgan. Ushbu davlatlarda amalga oshirilgan barcha islohotlar asosida, shu jumladan, tashqi iqtisodiy aloqalarda ham o'z mamlakati manfaatlari ko'zda tutilgan. Agarda ulardagi islohotlar jarayoni hamda XVF Nizomining 8-moddasini qabul qilish vaqtiga e'tibor qaratsak, ushbu fikrimiz yana bir bor o'z tasdig'ini topadi.

Bundan tashqari, so'mning almashuv kursini barqaror ravishda saqlab turilishi respublikamizning valyuta, pul va moliya bozorlarini mustaxkamlaydi, inflyatsion jarayonlarni hamda valyuta kursi bilan boq'liq xavf-xatarni kamaytiradi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarini yuritish, soliqlar, bojxona hamda boshqa to'lovlarni amalga oshirish jarayonini engillashtiradi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, valyuta rejimining erkinlashtirilishi nafaqat xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga, balki aholi uchun ham xorijiy valyutalarga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirishga keng imkoniyatlar ochib beradi.

Shu bilan birga, valyuta siyosatini erkinlashtirish iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarini raq'batlantirishda muxim turtki bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiyotning an'anaviy va yangi tarmoqlarida markazlashmagan eksport hajmining oshishiga, kichik va o'rta byuiznes korxonalarining tashqi bozordagi faoliyati jadallashuviga hamda xalqaro bozor konúyunkturasiga moslashib borishiga va oxir-oqibat ularning mamlakat YAIMdagi salmoq'ining ortishiga olib keladi.

Nihoyat milliy ishlab chiqaruvchilar, xususan, xalq istemoli mollari, oziq-ovqat va engil sanoat korxonalarining yanada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi. Bunday korxonalarda ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan va xorijdan keltiriladigan xomashyo hamda ehtiyot qismlarni import qilish

uchun valyuta mablaq'larini erkin sotib olish imkoniyati yanada kengayadi. Bu esa ichki bozorni o'zimizda ishlab chiqariladigan sifatli iste'mol mahsulotlari bilan to'ldirishga olib keladi.

Bir so'z bilan aytganda, valyuta rejimining erkinlashtirilishi O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamjamiyatdagi nufuzini yanada oshirish, mamlakatimizdagi investitsion muhitni yaxshilash, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni raq'batlantirish, iqtisodiyotimizning eksport salohiyatini oshirish hamda maxalliy ishlab chiqaruvchilarni raq'batlantirish orqali iqtisodiyotimizga salmoqli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

So'm davlatimizning Bayroq, Gerb, Madhiya kabi ramzlari qatori milliy iftixorimiz timsollaridandir. So'm biz uchun nafaqat to'lov vositasi, balki xalqimizning boy tarixi, qadriyatlari, buyuk bunyodkorlik salohiyatini o'zida aks ettirgan ma'naviy vosita sifatida ham qadrlidir. Samarqanddagi Registon maydoni, Tillakori, Sherdor madrasalari, Go'ri Amir maqbarasi, Buxorodagi Chashmai Ayyub ansambli kabi tarixiy obidalar, poytaxtimizdagi Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat akademik katta teatri, "Istiqlol" san'at saroyi, shuningdek, shavkatli sohibqiron bobomiz Amir Temurga o'rnatilgan muazzam haykal tasviri tushirilgan kupuralar nafaqat mamlakatimizning iqtisodiy qudrati, balki xalqimiz ma'naviy salohiyatining yanada yuksalishiga ham xizmat qilmoqda. Qo'liga o'zbek so'mini olgan har bir yurtdoshimizning qalbida unda aks etgan tasvirlar ta'sirida Vatani, bunyodkor xalqi, ajdodlar merosi bilan faxr-iftixor tuyg'ulari jo'sh urishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Qimmatli qog'ozlar bozorining amal qilishi to'g'risida. 1996 yil 25 aprel.- T.: "Adolat", 2003.
2. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. «Xalq so'zi».2000 yil 17 fevral. № 37
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: "O'zbekiston", 2000,
4. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009. – 245 b.
5. D. Tojiboyeva, Iqtisodiyot nazariyasi(darslik) – T.: "Iqtisod moliya" 2005.
6. Razzoqov A., Toshmatov SH., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik (*lotin yozuvida*). - T. "Iqtisod-moliya", 2007.
7. Shodmonov SH., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2009.
8. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
9. www.uza.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
10. www.ceep.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.
11. www.ziynet.uz